MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI CHIZGAN RASMLARI ORQALI XARAKTARLARINI PSIXOLOGIK TAXLIL QILISH

XAZRATOVA SHAXNOZA

Nizomiy nomli TDPU Maktabgacha ta`lim

Pedagogikasi va psixologiyasi yo`nalish talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha ta`lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida ta`limiy jarayonlarini tashkil etish va olib borish yo`llari shuningdek, bolalarni chizgan rasmlari orgali ularni o`rganish va ta`lim berish jarayonlari bayyon etilgan.

Аннотция: В данной статье описаны способы организации и проведения образовательных процессов в центрах развития в дошкольных образовательных организациях, а также процессы обучения и обучения детей посредством их рисования.

Annotati: This article describes the ways of organizing and conducting educational processes in development centers in pre-school educational organizations, as well as the processes of learning and teaching children through their drawings.

Barchamizga ayonki, yurtimizda kechayotgan karantin davrida ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog-xodimlar farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasini masofaviy ta'lim tizimi orqali tashkil etmoqdalar. Jumladan, Namangan davlat universiteti Maktabgacha ta'lim yo‘nalashi sirtqi va maxsus sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar ham o‘z ta'lim tashkilotlaridagi guruh bolajonlariga onlayn videomashg‘ulotlar tashkil etib, jarayonni faollik bilan samarali tashkil etib bormoqdalar.

O‘qitish-maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni elementar bilimlar tizimi bilan tanishtirishda, “Ilk qadam” MTTning davlat o‘quv dasturida nazarda tutilgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydi. O‘qitish- ikki tomonlama jarayon. Tarbiyachilarning masofadan turib bolalarga ta'sir etish imkoniyatlarining samaradorligini oshirish hozirgi kunda ota-onalarga ko‘proq mas'uliyat yukini ortayotgani barchamizga ayondir. Endilikda ota-onalar bolalar bog‘chasi hayotiga faollik bilan kirib borib, masofaviy ta'lim-tarbiya jarayonlarida jonli ishtirok etayotganliklari quvonarli hol. Biz farzandlarimiz haqida nimalarni bilamiz? Albatta insonni o‘z ota-onasidan boshqa kimsa yaxshiroq bilolmaydi. Lekin, ilmiy asosga ega bo‘lgan fanning ayrim faktlarini bilish bolajonlarimizning bizga hyech qachon aytib tushuntirib beraolmaydigan ichki dunyosini bilishimizga yordam beradi. Barchamizga ravshan, bolalarning sevimli mashg‘ulotlaridan biri bu-rasm chizish. Tasviriy faoliyatning 4 turi bo‘lib, bular-rasm, applikatsiya, qurish-yasash va loy ishi. Bolalarimiz bu faoliyat turlari bo‘yicha bajonidil shug‘ullanadilar. MTTlarida ushbu faoliyat turlari

bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra, faoliyat markazlarida, mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda ularning eng sevimli, qiziqarli va foydali faoliyat turi sifatida muntazam tashkil etib boriladi.

Qadrli murabbiylar va ota-onalar! Bolajonlarimiz uchun tashkil etayotgan o‘qitish ishlarimizning muvaffaqiyati asosiy 3 shartga bog‘liq:

1. “Ilk qadam” MTTning davlat o‘quv dasturini yaxshi bilishimizga;

2. Ta'lim metodikasini to‘g‘ri qo‘llay bilishimizga;

3. Farzandlarimizning yoshi, individual xususiyatlari va imkoniyatlariga mos bilim berishimizga bog‘liq.

Pediatrlarning fikricha, sog‘lom bola deb, yaxshi o‘ynaydigan, yaxshi gapiradigan va yaxshi chizadigan bolaga aytilar ekan. Huddi til va o‘yin kabi rasm bolaning ichki dunyosini ochib beruvchi vosita ekan. Shuning uchun, bola o‘z ichki kechinmalarini, hissiyotlarini ifoda eta olishi uchun unga chizish imkoniyatini yaratib berish lozim. Rasm orqali bola o‘z xursandchiligi va xafagarchiligini, qo‘rquvlari va fantaziyalarini, atrof-muhitga munosabatini ifoda etishi mumkin. Psixologlar fikricha, chizmaydigan bola bo‘lmaydi, agar bola chizishni istamasa, demak unda ma'lum bir psixologik stress mavjud.

Farzandimiz chizgan rasmi bizga nimalarni “so‘zlaydi”?

Chizish paytida bolalar his-tuyg‘ularini boshqarmaydilar, ular aqlni emas, balki ruhning "asari"ni yaratadilar. Shuning uchun ular chizgan barcha tafsilotlarga e'tibor qaratish juda muhim. Chunki, bu bolaning ruhiy holati va uning atrofidagi narsalarga bo‘lgan munosabati haqida aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi. Keling, bolalarning chizgan rasmlarini tahlil qilish orqali ularni nimalarni his qilishini bilib olamiz:

1. Agar farzandimiz shoshqaloq, sabrsiz, haddan tashqari maqtovga o‘ch, o‘yinchoqlarni buzib o‘ynaydigan bo‘lsa, e'tibor bersak, uning eng ko‘p ishlatadigan rangi qizil rang bo‘ladi. Bu bolaning o‘zigagina xos xususiyat bo‘lib, ta'lim-tarbiya va muhit ta'sirida bola tarbiyalanib boradi. Buning tashvishlanarli jihati yo‘q. Bunday bolalar juda kuchli nerv sistemasiga ega bo‘lib, kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishadigan, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan, boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan insonlar sirasiga kiradilar.

Oilasida tez-tez janjallar bo‘lib turadigan, o‘zini yolg‘iz, himoyaga muhtoj sezadigan, bolalar qizil rangni deyarli ishlatmaydilar.

2. Pushti rangni ko‘p ishlatadigan bolalar kattalarning qo‘llab-quvvatlashlariga muhtojlik sezadilar. Tabiatlari nozik, ularda boshqalarga qaramlik bor. U doimiy qo‘llab-quvvatlovchini qidiradi, ota-

onasining mehr-muhabbat ko‘rsatishini kutadi. Bunday bola bilan doimiy taktik aloqada bo‘lish kerak, ya'ni ularni ko‘p o‘pib, quchish kerak.

3. Agar farzandlarimizga yetarlicha e'tibor, muhabbat bilan qaramasak, ular yaratgan narsalarida to‘q-yashil rang ustunlik qiladi.

Aslida tabiatan qat'iy va o‘jar insonlar yashil rangni xushlaydilar. Yashil rangning ochiq tusi himoyaga muhtojlikni bildiradi. Odatda onalik mehrini tuymagan bolalar bu rangni ko‘p ifodalaydilar, kelajakda esa yuksak intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lishlariga qaramay, yangilik va qiyinchiliklardan qo‘rqib, xavfsizlikni ustun qo‘yadigan bo‘lib qoladilar. Bunday bolajonlarimizni o‘zini xavfsiz va himoyalanganlik hissini tuyib ulg‘ayishlariga e'tibor qaratishimiz kerak.

4. Chizgan rasmlarida sariq rang ko‘proq ustunlik qilgan bolajonlarimiz ijodkor, qiziquvchan, tasavvuri boy bo‘ladi. Bunday bolalar oddiy predmetlar (oddiy tayoq, tosh,..)ni ham o‘zlari hayolan turli o‘yinchoqqa o‘xshatib o‘ynayshlari mumkin. Yolg‘iz o‘ynasalar ham zerikmasliklari mumkin. Chunki ular xayolparastlik (o‘zini ertaklar olamida tasavvur qilish) va o‘ziga xoslik bilan ajralib turadilar.

5. Agarda, bolajonimiz chizgan suratlarida to‘q-sariq, zarg‘aldoq ranglar ustunligi sezilsa, darhol ularning uyqu vaqtiga diqqat qaratishimiz kerak. Ko‘proq uyqusizlik ularda yuqori asabiylik, sababsiz qiyqirishlarga sabab bo‘ladi. To‘q-sariq va zarg‘aldoq (apelsin) ranglarni haddan tashqari ko‘p ishlatishsa, ehtiyotkorlikni oshirishimiz kerak. Bundaybolalarnitinchlantirish mushkulroq, yaxshisi, ularningkuchlarini ota-onalarga yordam berish uchun uy atrofidagi ishlarni bajarishga yo‘naltirgan ma'qulroq.

6. Chizgan rasmlarida ko‘k rang ko‘proq ustunlik qiladigan bolajonlarimizning his-tuyg‘ulari xotirjam, shov-shuvli, fidoiylikka moyil bo‘lib, bunday bolajonimizni dam olishga muhtojligini inobatga olish kerak.

7. Agar bola haddan tashqari siqilgan, erkinlik va rag‘batlantirishlarga muhtoj bo‘lsa, chizgan rasmlarida ko‘k-yashil rangning ustunligi sezilib turar ekan. Bunday bolalarga qo‘yilgan talablarni ham biroz kamaytirish kerak. Chunki, bu bolalar shundoq ham tabiatan boshqalarga g‘amxo‘r va halol bo‘ladilar. Ortiqcha talablarga ular muhtoj emas.

8. Binafsha rangni ko‘p xushlaydigan bolalarning ichki dunyosi ham, tasavvuri ham boy bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha bu rangdan o‘zlarini yolg‘iz his etishganda, o‘zlarini kuchsiz va himoyasiz his etganlarida ishlatadilar. Bu paytda bola ko‘proq mehr va daldaga muhtoj bo‘ladi.

9. Bola jigar rangni juda ko‘p ishlatganida, uning sog‘ligida, oilasida muammolar bo‘lishi mumkin. Bunday bolalarga jiddiy e'tibor qaratilmasdan, ularning muammolari davom etaversa, ko‘plab ruhiy zarbalar natijasida salbiy hissiy holatlar paydo bo‘lishi mumkin.

10. Kulrang bola shunchaki juda toliqib charchaganida, xafsalasizlik holatida ham kulrangni ko‘p ishlatishi mumkin. Lekin muntazam ravishda burangdan foydalanish bolani doim rad etilishi,tortinchoqlik, yakkalanish, o‘z qobig‘iga o‘ralib olish xususiyatlari bilan ifodalanadi.

11. Qora rangni muntazam ravishda ko‘pish ishlatishi esa bolaning stressni boshidan kechirayotganini bildiradi. O‘ziga ishonchi yukori.

12. Oq rangdan, ko‘pincha, bola yolg‘izlikni his qilganda, asabiy charchash va ruhiy bezovtalikni boshdan kechirganda foydalanadi. Ularda hayotga qiziquvchanlik yo‘q.

Agar bola qalamni kuchli bosim bilan bosib chizsa, unda hissiy zo‘riqish kuzatiladi. Bosim judayam kuchayib qog‘oz yirtilish holatiga borsa, unda bolamizda ziddiyatli holatni ustun bo‘lib turganiga ishoradir. Zaif bosim bilan chizilgan chizgilar toqatsizlik va passivlikni bildiradi.

Bolalar xali kichikligi tufayli shaxslararo munosabatlarda, o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalab beraolmaslik bilan birga, vaziyatga ham to‘g‘ri baho bera olmaydilar. Bolaning chizgan rasmlaridagi narsalarning joylashuvi, ishlatgan ranglaridagi ustunlikni tahlil qilish orqali siz hyech qachon bolaning o‘zidan eshitmaydigan narsalar haqida bilib olasiz. Chunki, bolalar chizgan paytda ruhiyatdagi borini tasvirlaydilar.

Koreys bog‘chalarida tartibsizlik qilgan bolalarni tarbiyachilar urushmas ekan. Tarbiyachi yoniga o‘tirgizib, bolaning qo‘liga qogoz-qalam berib qo‘yar ekan. So‘ngra tarbiyachi bolani oldiga kelib, nega bunday yomon bola bo‘layotganini so‘rab, bu yaxshi emasligini tushuntirishar ekan. Bu juda yaxshi usul. Bola o‘z fikrlarini, ichidagi kechayotgan his-tuyg‘ularini rasmda ifodalaydi. Boladagi barcha bilish jarayonlari ijobiy tomonga o‘zgarib, rasm chizishga qiziqa boshlaydi. Ana endi, ota-onalar va tarbiyachilar, farzandlarimizning chizgan rasmlariga karab, oz bo‘lsada, ularning ichki kechinmalarini “o‘qib” olishimiz mumkin bo‘ladi. Albatta, bolalar rasmlarini tahlil qilib xulosa berish faqat tajribali psixologning ishi. Ammo bolalar ijodkorligini rivojlantirishda, ularni jismonan va ruhan sog‘lom bo‘lib kamolga yetishishlarida fanning ilmiy asoslarini ayrim muhim jihatlarini bilish hyech kimga zarar qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, *1*(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Maxmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.
6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
7. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
8. Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, *8*, 61-63.
9. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 157-159.
10. Maxmudova, D. (2022). FORMATION OF BUSINESS ENVIRONMENT AND DIGITAL ECONOMY BASED ON DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS INFRASTRUCTURE. *Science and Innovation*, *1*(8), 312-318.
11. Maxmudova, D. M. (2023, January). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA TAYYORLASHDA INNAVATSIYON KITOBLARNING AXAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).
12. Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).
13. Maxmudova, D. (2022). FOREIGN EXPERIENCE IN REGULATING AND SUPPORTING SMALL BUSINESS BY THE STATE. *Science and Innovation*, *1*(7), 482-488.
14. Makhmudova, D. M.(2022). AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING
15. Makhmudova, D., & Ikramova, F. (2023, March). Water regime effect on soils of the motor roads subgrade. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing.
16. Makhmudova, D. M. (2022, February). ON THE PROBLEMS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Zone* (pp. 225-226).

17. Mirkarimovna, M. D. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI XALQ OGZAKI IJODI VOSITASIDA KITOBXONLIKKA TAYYORLASH. *PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS*, *1*(1), 35-37.
18. Mirkarimovna, M. D., & Zeboxon, A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASHTIRISHNING TUZILISHI VA FUNKSIYALARI. *PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS*, *1*(1), 7-9.
19. Maxmudova, D. M., & Xumora, R. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ERTAKLI KITOBLAR YARATISH USULLARI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, *3*(2).
20. Mirkarimovna, M. D. (2024). MTTDA TARBIYALANUVCHILARNING MADANIY-TARIXIY QADRIYATLAR VOSITASIDA MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASI. *PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS*, *1*(1), 10-12.
21. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ЭРТАКЛАР ВОСИТАСИДА КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, *1*(24), 95-97.

WORDLY KNOWLEDGE